

**HARBIY XIZMATCHILARDAGI NAMOYON BO'LUVCHI STRESSLARNING  
XUSUSIYATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7542757>



**ELSEVIER**



**Norbutayev Samandar Abdubakirovich.**

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi Universiteti magistratura  
tinglovchisi



**Received:** 16-01-2023

**Accepted:** 17-01-2023

**Published:** 22-01-2023

**Abstract:** Har xil toifadagi harbiy xizmatchilarning psixologik bilimlarni bilib, unga amal qilishlari harbiy xizmat o'tash vaqtida yuzaga keladigan turli xil stresslarni boshqarish uchun imkoniyat yaratadi. Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarda stresslar paydo bo'lushining ijtimoiy-psixologik tomonlari haqida so'z yuritilgan.

**Keywords:** psixologik bilim, harbiy xizmat, stress, harbiy xizmatchi, zo'riqish.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Harbiy xizmatchilarda stressning paydo bo'lishi muammosini o'rganish, harbiy xizmatchi xulqining shakllanishida uning qaysi xususiyati asosiy rolni ijro etayotganligini, u yoki bu harakatlarni bajarishda nimalarga asoslanganligini aniqlash ayniqsa ahamiyatlidir. Empirik ya'ni taqqoslash jixatdan o'z tasdig'ini topishi lozim bo'lgan xulosalar bilan asoslanishi hamda harbiy xizmatchining o'tmishi va hozirgi kunini bilish bilan birgalikda uning ertangi kunini ham bashorat qilishi kerak.

Harbiy xizmatchilarni stress holatiga olib keluvchi stressorlar nima? Stresslar bu odamning hayoti uchun u ishlaydigan vazifa unga mavjud bo'lgan resurslardan oshib ketganda, uning farovonligi yoki holatiga tahdid sifatida qabul qilinadigan vaziyatlardir. Biror kishi stress bilan duch kelganida, tananing stressga qarshi reaksiyasi boshlanadi va odamning kurashishi yoki yugurishiga imkon beradigan bir qator fiziologik o'zgarishlar yuzaga keladi. Harbiy xizmatchilar ba'zida o'zlarining hayotidagi "stress" haqida gapirganda, stresslar tanadagi stressli reaksiyaga olib keladi va stressni boshdan kechiradi. Asosan, stressni keltirib chiqaradigan narsani esdan chiqarmaslik kerak.

Bu jarayonda harbiy xizmatchining shaxsiy xususiyatlari, hatti-harakatlarining motivi, rivojlanishi asosiysi, nima uchundir ba'zi harbiy xizmatchilar jamoasiga tez oson moslashadi, ba'zi birlari esa xizmatdoshlari va boshliqlari bilan muloqotda qiyinchiliklarga duch kelishi haqida alohida to'xtalish lozim.

Har qanday holat, kundalik va tinch holatdagi faoliyat ham zo'riqishni keltib chiqarishi mumkin.

Qo'l ostidagilarga zo'riqishlarning ta'siri kuchsizroq bo'lishi yoki umuman ta'sir qilolmasligi uchun, boshliqlar o'zlarini ruhan tayyorlashi lozim [1].

Harbiy xizmat olib borishda stress holatining darajasini aniqlash mumkin emas. Ushbu masalani o'rganishdan oldin T.A.Serebyakovaning "Psixologiya stressa" [2] nomli darsligidan foydalanishimiz mumkin.

Kitobda qirq uch mingta holatda namoyon bo'lgan kasalliklarda stress holatlariga vegetativ reaksiyaning yuqoriligi intellektual ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi yozilgan. Lekin stress holatlari bo'yicha diagnostika o'tkazilgan. Mavzu doirasida stressli holatlarni o'rganishda qo'llaniladigan metodlarni ko'rib chiqamiz. Bu stressga chalinish reaksiyasini o'lhash metodikasi hisoblanib, quyidagi turlari anqlangan.

Stressni kimyoviy o'lhash - qon tarkibidagi turli garmonlarni aniqlash uchun labaratoriya tekshiruvini o'tkazish;

Elektromiografik o'lhash – stress reaksiyasini muskullarga ta'sinrini o'lhash;

Gemodinamik o'lhash – stressni yurak faoliyatiga ta'siri aniqlanadi;

Elektroterili o'lhash – stressning teri rangining o'zgarishiga ta'siri aniqlanadi;

Psixologik metodlar yordamida o'lhash – psixologik effektlar asosida stressga bo'lgan reaksiyalarni o'lhash;

Harbiy xizmatchilar shaxsida stressni namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillar, xizmat faoliyatining harbiy nizomlar va qonunlar asosida tashkil etilganligi, xizmat olib borish shartlari va sharoitlari, harbiy xizmatchilarning yosh xususiyatlari, ma'lumoti, ijtimoiy himoyalanganligi bilan bir qatorda individual xususiyatlari, harbiy jamoalardagi o'zaro munosabatlarning ta'sirini aniqlash maqsadida majmuaviy yondoshuv asosida empirik ya'ni taqqoslash tadqiqot metod va metodikalari tanlab olindi.

Harbiy xizmatchilar shaxsida stress paydo bo'lishi muammosini tadqiq qilish vaqtida nafaqat uning paydo bo'lishi balki, bunga sabab bo'luvchi ijtimoiy omillarni inobatga olgan holda, respondent (lot. respondium - javob empirik ya'ni taqqoslash ijtimoiy tadqiqotda og'zaki yoki yozma axborot olishda ishtirok etuvchi shaxs) ning [3] demografik va shaxsiy ma'lumotlari o'rganilganida, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy - demografik ma'lumotlari, xizmat sharoiti, kasbiy faoliyatga munosabati, intizomiligi, o'z jamoasidagi munosabatlari, guruxiy qadriyatlarga munosabatlarini shaxsiy baxolash va qabul qilish, o'zaro fikr almashish munosabatlarining stress paydo bo'lishiga ta'siri Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi katta o'qituvchisi Boboyev Xurshidbek Yusupovich tomonidan o'rganib chiqilgan.

Harbiy xizmatchilar har bir yosh davrlarining individual xususiyatlarini bilish, ularning imkoniyatlarini samarali yo'naltirish, balki yosh disgarmoniyasi bilan bog'liq bo'lgan muammoli vaziyatlarni bartarf qilish imkoniyatini beradi. Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik, psixologik, psixologik xususiyatlari bir

butunligi makroxarakteristika nomlanib [4], ular asosida harbiy xizmatchi shaxs va individuallik hamda aniq faoliyat sub'ekti sifatida baholanadi.

Shu qarashlardan, ushbu xususiyatlarga e'tibor qaratmasdan harbiy xizmatchi kasbiy faoliyatini samarali tashkil etib bo'lmaydi.

Harbiy tadqiqotchilar yosh ko'rsatkichlarining armiyada inson hayotining asosiy 3 davri 19-21 yosh - o'smirlilik yoshi; 22 - 35 yosh - yetuklikning birinchi davri; 35-60 yosh - yetuklik yoshining 2 davridagi harbiy xizmatchilar faoliyat yuritadilar[4].

Xulosa qilib aytganda harbiy xizmatchilarda paydo bo'luvchi stresslarni o'rganishda harbiy xizmatchi xulqining shakllanishida birlamchi xususiyatlarining yetakchilik qilganligini, haraktalarini amalga oshirishda nimalarga asoslanganligini aniqlash muhimdir. Taqqoslash uchun o'z tasdig'ini topishi lozim bo'lgan xulosalar asoslanishi hamda harbiy xizmatchining o'tmishi va bugunini tushuntirish bilan cheklanib qolmasdan, uning xulqida kelajakda ham yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar ko'ra bilishi kerak bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. R.Samarov, U.Qodirov, F.Fazliev, "Harbiylik sharafli kasb". - Toshkent, 2006. 62-b.
2. Serebryakova T.A. "Psixologiya stressa". O'quv qo'llanma. Novgorod. 2009. 43-b.
3. Xolbekov A., Idirov U. Sotsiologiya. - Toshkent: AbuAli Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1999. -103-b.
4. Voinskiy trud: nauka, isskusstvo, prizvanie / Laptev L.G., Gatalov S.R., Kondalov A.M., Markitan R.V., Musatov M.I., Shevchenko V.G., Xomenko I.E., Yakovlev V.N., Mas'ul muxarrir: Akademik MAAN Laptev L.G., Dotsent Markitan R.V., Xomenko I.E., Sovershenstvo 1998. 71-b.
5. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi katta o'qituvchisi. Boboyev Xurshidbek Yusupovich. "Harbiy xizmatchilar shaxsida stressni namoyon bo'lishining ijtimoiy - psixologik xususiyatlari" nomli maqolasi.

### **FOYDALANILGAN INTERNET MANBAALARI:**

1. [https://kpfu.ru/staff\\_files/F928476394/Psihologiya\\_stressa\\_i\\_metody\\_ego\\_profilaktiki.pdf](https://kpfu.ru/staff_files/F928476394/Psihologiya_stressa_i_metody_ego_profilaktiki.pdf).